FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 27 - may 95-11-153-Q/24 Beshariq tumani hokimligi

Tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Respublikamiz hududida kundan kunga transport vositalari soni ortib borayotganligi hamda tuman hududidagi yo‘llarda YTX oldini olish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yildagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.04.2021-yildagi 232-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga xususiy sektorlarni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 11.11.2020-yildagi 713-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yildagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Beshariq tumani YFDM boshlig‘i Z.Nazirov, IIB YHXG katta inspektori A.Anvarovlar:

- jismoniy va yuridik shaxslar imkoniyatlaridan foydalangan holda harakat xavfsizligiga doir qoidabuzarliklarni aniqlash uchun 4k-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmahram” avtomobil yo‘lining 26-km oralig‘iga, 4K-923 “Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmahram” avtomobil yo‘lining 25,2-km oralig‘iga, 4K-923 “Beshariq shahriga” avtomobil yo‘lining 25.1-, km oralig‘iga, 4K-923 “Beshariq

shahriga” avtomobil yo‘lining 2-km oralig‘iga qo‘zg‘almas videokuzatuv kameralari o‘rnatilishi va videokuzatuv kameralari tomonidan tasvirga olingan qoidabuzarliklarni qonun ustivorligini ta’minlash va kelgusida haydovchilar tomonidan qo‘pol qoidabuzarliklar hamda avariya holatlari sodir etilishini oldini olish maqsadida “ejarima/uz veb-sayti” joylashtirib borilishini tashkil etish;

- har oyda tuman hududidagi yo‘llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o‘choqlari, qoidabuzarliklarning tahliliga ko‘ra, boshqa harakat xavfsizligi, transport va yo‘l sohasiga mas’ul bo‘lgan idoralar rahbarlariga axborotnoma va taqdimnoma kiritilib, ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etilishini nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta’minlanishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Eshmatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**